



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

O'SMIR YOSHLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Choriyorova Shahriniso To'liq qizi, Mirzayeva Sarvinoz Yo'ldosh qizi

O'zMU Jizzax filiali, M02-25 guruh magistranti

mirzayevasarvinoz66@gmail.com

shahrinisochoriyorova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smir yoshlarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilinadi. Ayniqsa, individual-psixologik xususiyatlar, oilaviy va ijtimoiy muhitning o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, deviant xulq-atvorning oldini olish bo'yicha samarali psixologik yondashuvlar va metodikalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, deviant, xulq-atvor, og'ishish, individual, ijtimoiy omil, oila, psixologik xususiyatlar, metodikalar, davr, mustaqillik, jamiyat, me'yor, xatti-harakat, ematsional barqarorlik va h.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida o'smirlar orasida deviant xulq-atvorning turli ko'rinishlari keng tarqalib bormoqda. Jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar yoshlarning ruhiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda shaxsning psixik rivojlanishi, o'zini anglash, mustaqillikka intilish va ijtimoiy munosabatlar tizimi shakllanadi. Shu sababli aynan ushbu davrda turli deviant xulq shakllarining paydo bo'lish xavfi ortadi. O'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va ziddiyatli bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxsda mustaqillikka intilish kuchayadi, o'z "Men"ini anglash jarayoni jadallashadi. Aynan shu davrda deviant xulq-atvor — ya'ni jamiyat me'yorlariga zid bo'lgan xatti-harakatlar yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Deviant xulq-atvor — bu jamiyat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy, axloqiy va huquqiy me'yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlar majmuasidir.

Edvin Sutherland- "Deviant xulq-atvor boshqalar bilan muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sir orqali o'rganiladi." [1]

Deviant xulq-atvor muammosi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Sotsiologik yondashuv vakillaridan biri bo'lgan Émile Durkheim deviant xulqni jamiyatdagi "anomiya" holati bilan bog'lagan. Uning fikricha, ijtimoiy me'yorlarning zaiflashuvi insonlarda nomaqbul xatti-harakatlarni yuzaga keltiradi.

Robert K. Merton esa deviantlikni jamiyatdagi maqsad va imkoniyatlar o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi sifatida izohlagan. Psixologik yondashuvda esa deviant xulq shaxsning ichki nizolari, emotsional muammolari va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklari bilan tushuntiriladi. [2]

Sigmund Freud inson xulqini instinktlar va ong osti jarayonlari bilan bog'lab, agressiv impulslarning nazorat qilinmasligi deviantlikka olib kelishini ta'kidlagan.

Albert Bandura esa ijtimoiy o'rganish nazariyasi orqali yoshlar atrofidagi salbiy namunalarni kuzatish va takrorlash orqali deviant xulqni egallashini ko'rsatib bergan.

O'smirlik davri psixik rivojlanishning o'tish bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda quyidagi psixologik xususiyatlar kuzatiladi: emotsional beqarorlik; mustaqillikka kuchli intilish; o'z "Men"ini izlash; tengdoshlar fikriga yuqori darajada bog'liqlik; konfliktlarga moyillik; impulsivlik va tajovuzkorlik.

Mazkur xususiyatlar o'smirlarning ijtimoiy muhitga moslashishini murakkablashtiradi. Ayniqsa, oiladagi nosog'lom muhit, ota-onalar nazoratining sustligi yoki haddan tashqari qattiqqo'llik deviant xulq shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Psixolog olim Lev Vygotsky o'smirlik davrini "inqirozli bosqich"[3] sifatida tavsiflagan. Unga ko'ra, bu davrda shaxsning ichki ehtiyojlari va tashqi talablar o'rtasidagi ziddiyat kuchayadi.

Deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

1. Oilaviy omillar

Oiladagi nizolar, ajralishlar, zo'ravonlik, yetarli mehr va e'tiborning yo'qligi o'smir psixikasiga salbiy ta'sir qiladi. Ota-onaning farzand tarbiyasidagi noto'g'ri usullari bolaning agressiv yoki antisotsial xulq namoyon etishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, ota-onalar tomonidan emotsional qo'llab-quvvatlanmagan o'smirlarda depressiya va tajovuzkorlik darajasi yuqori bo'ladi.

2. Ijtimoiy muhit ta'siri

Mahalla, maktab, ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'i yoshlar xulqining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Salbiy guruhlar ta'siri, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi media mahsulotlar hamda virtual qaramlik deviant xatti-harakatlarni kuchaytiradi.[4]

3. Tengdoshlar guruhi

O'smirlik davrida tengdoshlar fikri ota-onalar ta'siridan ham ustun bo'lib qolishi mumkin. Salbiy guruhga qo'shilish chekish, ichkilikbozlik, bezorilik va jinoyatchilik kabi xulqlarni shakllantiradi.

4. Individual-psixologik xususiyatlar

Temperament, xarakter, o'z-o'zini baholash darajasi va stressga chidamlilik deviant xulq shakllanishiga bevosita ta'sir etadi. Past o'zini baholash, xavotirlilik va frustratsiya agressiv reaksiyalarni kuchaytiradi.

Deviant xulq-atvorning asosiy ko'rinishlari:

O'smirlarda quyidagi deviant xulq shakllari ko'p uchraydi: agressiv xatti-harakatlar; huquqbuzarlik va jinoyatchilik; alkogol va giyohvandlikka moyillik; suitsidal tendensiyalar; internet va qimor qaramligi; vandalizm; maktab intizomini buzish.

Mazkur holatlar o'smir shaxsining ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda kelajakdagi psixologik muammolarning kuchayishiga olib keladi.

Deviant xulq-atvor profilaktikasi uchun quyidagilar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Deviant xulq-atvorni oldini olishda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

Oilada sogʻlom psixologik muhit yaratish; Oʻsmirlarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish; psixologik maslahat va treninglar tashkil etish: maktab va oilaning hamkorligini kuchaytirish; yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil qilish; individual psixokorreksion ishlarni olib borish.[5]

Psixologik profilaktika tizimida maktab psixologi, pedagog va ota-onalarning hamkorligi muhim oʻrin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, oʻsmir yoshlarda deviant xulq-atvorning shakllanishi murakkab psixologik va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Oilaviy muhit, tengdoshlar taʼsiri, emotsional beqarorlik va shaxsning individual xususiyatlari ushbu jarayonda muhim rol oʻynaydi. Deviant xatti-harakatlarning oldini olish uchun kompleks psixologik-pedagogik choralarni amalga oshirish zarur. Ayniqsa, oʻsmirlarning psixologik ehtiyojlarini inobatga olish, ularda ijobiy motivatsiyani shakllantirish hamda sogʻlom ijtimoiy muhit yaratish deviantlikning kamayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. -T.: O'zbekiston, 2017
2. G'oziev . “ Ontogeniz psixologiyas i ”. O'quv qo'llanma. Toshkent -2010.
3. “ O'smirlarda axloq me'yorlaridan chetga chiqish sabablari va uni bartaraf etish yo'llari” BMI Raimov Shuxrat 2013.
4. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" T. "Fan" 1993 yil
5. Хайдарова Х.Р. “ Миллий қадриятлар асосида ота-оналарнинг виртуал-педагогик маданиятини ривожлантириш масалалари ” //Results of National Scientific Research International Journal. - 2023. - Т. 2. - №. 1. - С. 264-272.
6. Turg'unboyev K., M.Tolipov, I.Oxunov Ijtimoiy pedagogika asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2008 yil.
7. I.M. Hakimova.” Deviant xulq-atvor psixologiyasi”. O'quv qo'llanma. Toshkent - 2014.
8. Umarov B.M. Xulq buzilishining kelib chiqishida oila muhiti. "Xalq ta'limi" jurnali. T.2001.
- 9 . www.ziyounet.uz.
10. www.diss.natlib.uz
11. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi – <https://lex.uz>
12. www.dissercat.com

BOʻLAJAK OʻQITUVCHILARDA EMOTSIONAL INTELLEKT SHAKLLANISHINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Karakulova Umida Abduvakilovna

OʻzMU Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasida assistenti
umida260686@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boʻlajak pedagoglarda emotsional intellekt (EI) shakllanishining oʻziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlari oʻrganiladi. EI oʻz his-tuygʻularini anglash, boshqarish, empatiya va ijtimoiy munosabatlarni oʻrnatish qobiliyatlari majmuasi sifatida taʼriflanadi. Boʻlajak pedagoglarda EI ning rivojlanishi oliy taʼlim jarayonida muhim oʻrin tutadi, chunki u kasbiy stressni boshqarish, sinf